

7 may
80 -

2022 yil kuidagi
sonli buyruqqa 7-ilova



«TASDIQLAYMAN»

“O’ZYO’LLOYIHA” loyiha-qidiruv instituti”

DUK direktor o’rinbosari

O.Radjabov

“O’ZYO’LLOYIHA” loyiha-qidiruv instituti” DUK buyurtmachiligidagi ob’yektlarning
loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun yo’l qoplama holatini o’rganish tanlovlarni
o’tkazish va tashkillashtirish bo‘yicha tanlov kommissiyasining ish

REGLAMENTI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur reglament O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O’RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi qonuni va amaldagi me’yoriy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, tanlov komissiyasining tanlovlarni o’tkazish va uni tashkillashtirish tartibini belgilaydi. Tanlov O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasi yo’l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5890-tonli farmoni va hukumatning tegishli topshiriqlarga asosan o’tkaziladi.

2. Tanlov komissiyasi “O’ZYO’LLOYIHA” loyiha-qidiruv instituti” DUK ning 2022 yil 07 maydagi 80-tonli buyrug‘i asosida ish olib boradi.

3. Tanlov komissiyasi a’zolarining tanlovda **70%** dan kam bo‘lmagan qismi qatnashsa tanlov komissiyasi qabul qilgan qaror muvofiq deb hisoblanadi.

4. Tanlov komissiyasi a’zosi o‘z huqularini boshqa shaxsga tashkilot raxbari tomonidan berilgan ishonchnoma asosida tanlov komissiyasi ishida qatnashishi mumkin.

5. Takliflarni tanlovga e’lon berilgandan 5 ish kunidan so‘ng, komissiya a’zolari ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

6. Ofertani buyurtmachiga topshirishning oxirgi muddati e’lon berilgandan boshlab 5 ish kuni.

7. Tanlov komissiyasining har bir a’zosi tomonidan takliflar bo‘yicha ovoz berish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qat’iy ravishda maxfiy va oshkor etilishi shart emas.

8. Har bir taklifi ko‘rib chiqilgandan keyin qaror ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, agar ovozlar teng bo‘lsa raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

9. Paketlarni komissiya vakillari tomonidan o’rganish va baholash O’zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasiga “etender.uzex.uz” portalida o’tkaziladi.

10. Agar tanlov g‘olib tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan shartlar asosida shartnomaga tuzishdan bosh tortsa, unda takliflarni keyingi ball olgan ishtirokchi tanlov g‘olib bo‘ladi yoki tanlov boshqat(yangi)dan o’tkaziladi.

11. Ishtirokchi tomonidan bajarilgan ishlarni hujjatlarini o‘z vaqtida yetkazib berilmagan va sifatsiz ishlab chiqilgan bo‘lsa, shartnomaga majburiyatlarini ilgari asossiz ravishda buzganliklari, shuningdek pudratchilar tomonidan shikoyat bo‘lgan taqdirda, tanlov komissiyasi ishtirokchining taklifini rad etishga va paketni ochmasdan qaytarishga haqlidir.

12. Tanlov ishtirokchilari bajarilgan ishlarni hujjatlarini ishlab chiqish faoliyati bilan shug‘ullanishga tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan tashkilot va korxonalar bo‘lishi lozim.

13. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza beruvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- a) tanlovda ishtirok etish uchun ariza;
- b) tanlov ishtirokchilari uchun ko‘rsatmalarga muvofiq to‘ldirilgan ariza shakllari;
- v) ro‘yxatga olinadigan hujjatlarning nusxalari (shu jumladan subpudratchilarniki);
- g) tanlovga qo‘ylgan ishlarni hujjatlarini ishlab chiqish uchun tegishli litsenziyalar nusxalari (shu jumladan subpudratchilarniki);

d) ob’yektni o’rganilgani bo‘yicha (**tushuntirish xati, ob’yektning rejasi, yo‘Ining umumiy ko‘rinishi, fotosuratlar**)

14. Hujjatlar (Texnik qism, taklif etilayotgan narx va loyihani ishlab chiqish muddati) muhrlangan nusxalari elektron ravishda qabul qilinadi.

15. Baholashning asosiy mezonlari texnik qism va tanlovga qo'yilgan ishlar hujjatlarini ishlab chiqish narxi bo'ladi.

16. Tanlov natijalari asosida tuzilgan shartnomaning shartlari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan Fuqarolik kodeksining umumiy tamoyillariga, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga va me'yoriy hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerak.

17. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar qo'yilgan talablarga javob berishi kerak.

18. Tanlovda qayta tashkil etilayotgan yoki bankrotlik holatidagi tashkilotlar ishtirok etishi mumkin emas.

II. Tanlov taklifiga kiritilgan hujjatlar.

Tanlov ishtirokchisi quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi:

19. Tanlov ishtirokchisining tashkiliy shakli to'g'risidagi ma'lumotlar (tashkilotning bo'limlari bilan birgalikda tuzilishi va kadastr xujjatlari yoki ijara shartnomasi) (1-ilova).

20. Belgilangan shaklda berilgan tegishli toifadagi litsenziyani ilova qilgan holda tanlov ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumotlar, barcha subpudratchilar bilan birgalikda (2-ilova).

21. So'nggi uch yildagi tanlov ishtirokchisining moliyaviy holati to'g'risida hujjatlar (3-ilova).

22. So'nggi uch yil ichida tugatilgan va amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha tanlov ishtirokchisining ish tajribasi, loyihani amalga oshirish to'g'risida sertifikatlar, guvohnomalar, (bajarilgan ishlar dalolatnomalari nusxalari) buyurtmachilar tomonidan berilgan mulohaza xatlari, amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tuzgan shartnomalari nusxalari bilan birga taqdim etilishi lozim (4-ilova).

23. Ob'yeektni o'rganganligi to'g'risida ma'lumotnoma. Vizual grafik materiallar (**tushuntirish xati, ob'yeektning rejasi, yo'Ining umumiy ko'rinishi, fotosuratlar**) (5-ilova).

24. tanlovga qo'yilgan ishlar hujjatlarini ishlab chiqishda foydalaniladigan jihozlar va texnikalarning ro'yxati (6-ilova).

25. Taklif etilayotgan subpudratchilar ro'yxati va subpudratchilar tomonidan loyihaning turli qismlarini bajarib berishi to'g'risida kafolat xatlari (7-ilova).

26. tanlovga qo'yilgan ishlar hujjatlarini ishlab chiqish muddati (8-ilova).

III. Taklifni muhrlash va markalash.

27. Hujjatlar imzolangan va muhrlangan nusxalari elektron ravishda O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi "etender.uzex.uz" portaliga joylashtiriladi.

28. Takliflar va hujjatlar talab qilingan holatda bo'lmasa buyurtmachi tomonidan hujjatlar qabul qilinmaydi yoki ko'rib chiqilmaydi.

IV. Komissiya ishini boshlash, tanlov takliflarini ochish va baholash.

29. Tanlov O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi "etender.uzex.uz" portalida o'tkaziladi.

30. Ishtirokchilar takliflari O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi "etender.uzex.uz" portalida ko'rib chiqiladi.

31. Tanlov komissiyasi ishtirokchilarning takliflarini ko'rib chiqadi, ularning to'g'ri to'ldirilganligi, xujatlarning elektron nusxalari xaqiqiyligi, to'g'ri imzolanganligi va umumiy holat bo'yicha takliflarni ko'rib chiqadi.

32. Tanlovga kiritilmagan yoki diskvalifikatsiya qilingan taklif ishtirokchilarini bayonnomada sababini ko'rsatgan holda tanlovdan chetlashtiriladi.

V. Tanlov ishtirokchilarini baholash.

33. Tanlov g'olibini aniqlashda tanlov ishtirokchilari tomonidan to'ldirilgan va taqdim etilgan ilovalar o'rganib chiqiladi.

34. Tanlov komissiya azolari O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi "etender.uzex.uz" portalida o'z shaxsiy kabinetidan baholaydi va tasdiqlaydi(o'z shaxsiy ERI bilan) (namuna 1-jadvalda keltirilgan).

35. Zarur bo'lganda, tanlov komissiyasi komissiya tarkibidan, "O'ZYO'LLOYIHA" DUK bo'limlaridan yoki tegishli boshqa mutaxassislarni jalb qilgan holda hujjatlarni to'liq o'rganib chiqish va xulosa kiritish uchun baholash guruhi tuzishga haqlidir.

№ №	Parametrlar nomi	№№ Ilovalar	Maksi- mal ball	Ishtirokchilar nomi			
				№1	№2	№3	№4
1	Ishtirokchining tashkiliy shakli	1-ilova	5				
2	Tanlov ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumotlar (litsenziyalarini ilova qilingan holda)	2 -ilova	14				
3	Tanlov ishtirokchisining moliyaviy holati	3-ilova	28				
4	So'nggi uch yil davomida bajargan ish tajribasi	4-ilova	21				
5	Ob'yektning o'rganganligi to'g'risida ma'lumot	5-ilova	7				
6	tanlovga qo'yilgan ishlar hujjatlarini ishlab chiqishda foydalaniladigan o'z balansidagi jihozlar va texnikalarning ro'yxati	6-ilova	10				
7	Taklif etilayotgan subpudratchilar ro'yxati va subpudratchilar tomonidan loyihaning turli qismlarini bajarib berishi to'g'risida kafolat xatlari	7-ilova	5				
8	tanlovga qo'yilgan ishlarni yakunlashni taklif etilayotgan muddati	8-ilova	10				
	Jami		100				

VI. Tender takliflarini baholash mezonlari.

36. Tanlov hujjatida har bir parametr bo'yicha majburiy tartibda baholash mezonlari kiritilishi kerak.

Baholash mezonlari 2-jadvalda keltirilgan

Avtomobil yo'llarini (yo'l inshootlarini va binolarini) qurish, rekonstruksiya qilish va to'la ta'mirlash ob'yeqtlarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun yo'l qoplama holatini o'rganish tanlov takliflarini baholash mezonlari.

№	Ilovalarning baholash parametrlari nomi.	Ballar miqdori
I. Ishtirokchining tashkiliy shakli. 1-ilova (5 ball)		
1.	Tashkilotda ikkitadan kam bo'lмаган kompleks bo'limning mavjudligi	1
2.	Tashkilotning arxivi va loyihalash xonasining mavjudligi (kadastr hujjatlari nusxasi yoki ijara shartnomasi nusxasi)	1
3.	Texnik bo'limning mavjudligi	2
4.	Material texnik ta'minot xizmatining mavjudligi	1
II. Tanlov ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. 2-ilova (14 ball)		
1.	5 kishidan kam bo'lмаган doimiy ishlovchi malakali loyihachi va mutaxassislarining mavjudligi (to'liq formatdag'i xodimlarni ishga qabul qilish buyrug'i, mexnat daftarchasining mygov.uz yoki mehnat.uz portali orqali olingan ko'chirma nusxalari, diplom nusxalari ilova qilingan holda).	5
2.	Ish stoji 5 yildan kam bo'lмаган doimiy ishlovchi tanlovga qo'yilgan ishlarni bajarish bo'yicha 1 ta tajribali muxandisining mavjudligi (to'liq formatdag'i xodimlarni ishga qabul qilish buyrug'i, mexnat daftarchasining mygov.uz yoki mehnat.uz portali orqali olingan ko'chirma nusxalari, diplom nusxalari ilova qilingan holda).	5
3.	Ish stoji 5 yildan kam bo'lмаган doimiy ishlovchi tanlovga qo'yilgan ishlarni bajarish bo'yicha 4 ta muxandis texnik xodimlar mavjudligi (to'liq formatdag'i xodimlarni ishga qabul qilish buyrug'i, mexnat daftarchasining mygov.uz yoki mehnat.uz portali orqali olingan ko'chirma nusxalari, diplom nusxalari ilova qilingan holda).	4

III. Ishtirokchining moliyaviy holati. 3-ilova (28 ball)		
1.	Budjet oldida qarzdorligi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnomma (tegishli davlat soliq tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim)	5
2.	Tashkilotning tegishli davri uchun doimiy ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik soni va ish haqi jamg'armasi to'g'risida ma'lumotnomma, 50 mln.so'mdan kam bo'lmasligi lozim (tegishli davlat soliq tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim)	5
3.	Tanlov ishtirokchisining hisob raqamida buyurtmachi tomonidan qo'yilgan ob'yeckning boshlang'ich qiymatini 15% dan kam bo'lmagan mablag' bo'lishi lozim (tegishli bank tomonidan berilgan ma'lumotnomma yoki kafolat)	5
4.	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati 200 mln.so'm va undan ko'p	5
5.	Muddati o'tgan kreditor qarzdorlikni mavjud emasligi	4
6.	O'tgan yilda 50 mln.so'm foydasi (soliq to'langunga qadar) mavjudligi	0 yoki 4
IV. So'nggi uch yil davomida bajargan ish tajribasi (asoslovchi hujjatlar bilan). 4-ilova (21 ball)		
1.	Uch yilda tanlov predmetiga o'xshash o'z kuchi bilan bajarilgan ish hajmi jami 500 mln. so'mdan ko'p bo'lishi (shartnoma, dalolatnoma, shyt faktura nushalari)	3
2.	Oxirgi uch yil tanlov predmetiga o'xshash ishlarni o'z kuchi bilan bajarish: yiliga N (N- Buyurtmachi boshlang'ich narxning 20%) va undan ko'p. (har bir yil 2 ball bilan baholanadi)	6
3.	Tanlovdagiga o'xshash profil bo'yicha oxirgi 3 yilda o'z kuchi bilan 3 tadan kam bo'tanlovga qo'yilgan ishlarni bajarish hujjatlarini ishlab chiqganligi. (shartnoma, dalolatnoma, shyt faktura nushalari)	6
4.	Tanlovga qo'yilgan ob'yeckt joylashgan hududga tanlov ishtirokchisi (filiali) joylashgan yuridik manzilini yaqinligi (muammolarni joyida xal qilish uchun)	6
V. Ob'yeckni o'rganganligi to'g'risida ma'lumot. 5-ilova (7 ball)		
1.	Ob'yeckni o'rganilganda (tushuntirish xati, ob'yeckning rejasi, yo'Ining umumiyo ko'rinishi, fotosuratlar)	7
VI. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda foydalilaniladigan o'z balansidagi jihozlar va texnikalarning ro'yxati. 6-ilova (10 ball)		
1.	Jihozlar va texnikalarning to'liq komplekti bo'lgan holatda (3 ta kompyuter, 1 ta printer, 1 ta plotter, Kerrn olish uskunasi, Progibomer, Past haroratlari laboratoriya elekt pechi, Yuqoti haroratlari laboratoriya elekt pechi, Laboratoriya nazorat elaklari	10
VII. Taklif etilayotgan subpudratchilar ro'yxati va subpudratchilar tomonidan yo'l qoplama holatini o'rganish turli qismlarini bajarib berishi to'g'risida kafolat xatlari. 7-ilova (5 ball)		
1.	Subpudratchi tashkilotlarning mavjudligi: Ballar subpudratchi tashkilotlar soniga teskari mutanosib hisoblanadi.	5
VIII. yo'l qoplama holatini o'rganish yakunlashni taklif etilayotgan muddati. 8-ilova. (10 ball)		
1.	Ijro muddati tender hujjatlarida belgilanganga mos yoki kam. Tanlov hujjatlarida belgilangan ijro muddatidan ortgan har 10 kun uchun 1 ball olib tashlanadi, lekin 10 balldan ortiq emas.	10

Izoh:

1. 1 va 2-jadvallar tanlov takliflarini baholash mezonining tavsiyaviy namunasi, har bir ob'yeckning murakkabligi va ish hajmiga qarab baholash mezonlariga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

2. Har bir baholash mezonini minimal bahosi nolga teng va uni undan past baho bilan ifodalash mumkin emas.

3. Ishtirokchi baholash yakunlariga ko'ra 60 balldan kam ball to'plasa (kelgusida – o'tish ballari), tanlov komissiyasi a'zolarining ovozi qarshi hisoblanib, texnik jihatdan malakasi yetarli emas deb hisoblanadi.

4. Ishtirokchilarini takliflari quyidagi hollarda ko'rilmaydi va hujjatlarning narx ochilmasdan ishtirokchiga qaytarilib tanlovdan chetlatiladi (diskvalifitsiya qilinadi):

- agar taklif tanlov komissiyasining ovoz berish natijalariga ko'ra texnik malakasi yetarli emas deb topilsa.

- 1, 3 -ilovalardan biri yoki barchasi taqdim etilmagan bo'lsa.

- 1 va 6-ilovalardan biri bo'yicha nol ball olgan bo'lsa.

- agar ishtirokchining taqdim etgan narxi buyurtmachining boshlang'ich narxidan yuqori bo'lsa.

5. Ballar O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi "etender.uzex.uz" portali tomonidan avtomatik tarzda interpolyatsiya yo'li bilan hisoblanadi.

37. Ishtirokchilarining takliflari quyida ko'rsatilgan tender takliflarining moliyaviy baholash mezonlariga binoan baholanadi.

Tanlov takliflari moliyaviy qismini baholash mezonlari

T/r	Ilovalarni baholash parametrlarining nomi	Ballar miqdori	Ishtirokchilar
I. Taklif etilayotgan narx. (35 ball)			
1.	Ishtirokchilarning taklif etilgan eng past narxi – 35 ball. Ishtirokchilarning buyurtmachi boshlang'ich narxidan	35	

yuqori takliflari rad etiladi. Narxga beriladigan ballar O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi "etender.uzex.uz" portali tomonidan avtomatik tarzda baholanadi.

II. Birinchi yig'ma jildni baholashdagi ballar miqdori.

Tender takliflarining baholash varag'i (texnik baholash). (65 ball)

1. Tanlov takliflarini texnik baholash yakuniga ko'ra eng ko'p ball to'plagan ishtirokchiga – 65 ball;

65

38. Agar baholash mezonida boshqa ma'lumotlar keltirilmagan bo'lsa, o'rganish natijalariga ko'ra, baholash guruhi a'zolari tanlov takliflarining quyidagi baholash yakuniy jadvalini to'ldirishadi:

Tanlov takliflarini baholashning yakuniy jadvali

T/ r	Parametr nomi	Maksimal ballar	Ishtirokchilar		
1	Taklif etilayotgan narx (narx preferensiyalarini hisobga olgan holda)	35			
2	Tanlov takliflarini baholash varag'i (texnik baholash)	65			
Jami ballar miqdori:		100			

39. Takliflar bo'yicha eng ko'p ball to'plagan ishtirokchi tanlov g'olib hisoblanadi.

40. Tanlov g'olibiga to'lovlardan tuzilgan shartnomaga asosan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (so'm) da to'lab beriladi.

Eslatma:

Tel./faks: (+99871) 237-09-77

info@uzloyiha.uz

uzyolloyiha@exat.uz

100000. Toshkent shahar, Mustaqillik ko'chasi, 68-uy .

Bo'lim boshlig'i – Umarov Jamshid Rashidovich, tel: (90) 026-02-00

TANLOV ISHTIROKCHILARI UCHUN KO'RSATMALAR

TANLOV HUJJATLARIDAGI ILOVALARNING BARCHA SAHIFALARINI TANLOV ISHTIROKCHISI
RAXBARI TOMONIDAN IMZOLANADI VA TASHKILOT MUHRI BILAN MUHRLANADI

1-ILOVA

TANLOV ISHTIROKCHISINING TASHKILIY TUZILMASI

Tashkilotning tashkiliy tuzilmasini sxematik tarzda ko'rsating

TANLOV HUJJATLARIDAGI ILOVALARNING BARCHA SAHIFALARI TANLOV ISHTIROKCHISI
RAXBARI TOMONIDAN IMZOLANADI VA TASHKILOT MUHRI BILAN MUHRLANADI

2-ILOVA

TANLOV ISHTIROKCHISI TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ishtrokchi nomi : _____

Raxbarning F.I.Sh.: _____

Tanlov ob'yektining nomi: _____

Manzili va telefon/

faks raqami: _____

Huquqiy maqomi (status): _____

Tashkil qilingan sanasi va joyi: _____

Mutaxassisligi bo'yicha
faoliyati: _____

Raxbar va uning o'rinnbosarları:

F.I.Sh.

Lavozimi

Ish tajribasi

Asosiy xodimlar (LBM, bo'lim boshliqlari, mutaxassislar)

F.I.Sh.

Lavozimi

Ish tajribasi

Doimiy va vaqtinchalik xodimlar soni:

Doimiy xodimlar (jami): _____

Vaqtinchalik xodimlar yoki shartnoma bilan ishlaydigan xodimlar (jami): _____

O'n (10) yildan kam bo'limgan ish stajiga egan bo'lgan xodimlar sonini ko'rsating
(soxa bo'yicha).

Doimiy ishlaydigan xodimlar _____

Vaqtinchalik xodimlar yoki shartnoma bilan ishlaydigan xodimlar _____

**TANLOV HUJJATLARIDAGI ILOVALARNING BARCHA SAHIFALARI TANLOV ISHTIROKCHISI
RAXBARI TOMONIDAN IMZOLANADI VA TASHKILOT MUHRI BILAN MUHRLANADI**

3-ILOVA

TANLOV ISHTIROKCHISINING MOLIYAVIY HOLATI
uch yillik moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni ilova qilgan holda
Tanlov ishtirokchisining nomi: _____

(ming. so‘m)

AKTIVLAR	2019 y	2020 y	2021 y	PASSIVLAR	2019 y	2020 y	2021 y
Uzoq muddatli aktivlar							
Asosiy vositalar				Ustav kapitali			
Shundan Ishlab chiqarish fondlari				Taqsimlanmagan foyda			
Qoldiq qiymat				O‘z mablag‘lari manbai			
Kapital quyilmalar				Zaymlar			
Tugallanmagan ishlab chiqarish				Kreditor qarzdorlik			
Joriy aktivlar							
Aylanma mablag‘lar				Shundan muddati o‘tgan qarzdorlik			
Ulardan ishlab chiqarish zaxiralari				Shundan budjetdan qarzdorlik			
Debitor qarzdorlik				Shundan ish haqidan qarzdorlik			
Shundan muddati o‘tgan qarzdorlik				Majburiyatlar			
Jami balans aktivni bo‘yicha				Zaymlar			
				Kreditor qarzdorlik			
				Shundan muddati o‘tgan qarzdorlik			
				Shundan budjetdan qarzdorlik			
				Shundan ish haqidan qarzdorlik			
				Jami balans passivi bo‘yicha			
				Jami balans passivi bo‘yicha			

MOLIYAVIY NATIJA

Nomi	2019 y	2020 y	2021 y	Nomi	2019 y	2020 y	2021 y
1. Realizatsiyadan olingan tushum				8. Sof foyda			
2. Realizatsiyadan olingan sof tushum				Shundan asosiy faoliyat bo‘yicha			
3. Realizatsiya kilingan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi				Umumxo‘jalik faoliyat bo‘yicha			
4. Ma’muriy xarajatlar				9. Asosiy faoliyatdan olingan foyda			
5. Boshqa xarajatlar				10. Umumxo‘jalik faoliyatdan olingan foyda			
6. Daromad solig‘i to‘lovi gacha foyda				11. Zarar			
7. Daromad solig‘i				shundan asosiy faoliyatdan umumxo‘jalik faoliyatdan			

Balans foydasi _____

So‘nggi 3 yil ichida biror bir bankrotlik yoki to‘lovgaga layoqatsizlik to‘g‘risidagi jarayonlar bo‘lganmi _____

Raxbar _____

Bosh buxgalter _____

M.O’.

Sana: «____» 2022 y.

Izoh: Tanlov ishtirokchisining oxirgi 3 yil ichida moliyaviy holati to‘g‘risidagi ahujjatlar auditor kompaniya xulosasi yoki DSI tomonidan tasdiqlangan balans hisobotlari bilan birga taqdim etiladi.

TANLOV HUJJATLARIDAGI ILOVALARNING BARCHA SAHIFALARI TANLOV ISHTIROKCHISI
RAXBARI TOMONIDAN IMZOLANADI VA TASHKILOT MUHRI BILAN MUHRLANADI

4-ILOVA

Oxirgi 3 yil davomida amalga oshirilgan loyiha-smeta hujjatlari
(202_-202_ yy.)

Tanlov ishtirokchisi nomi: _____
So‘ngi 3 yilda yakunlangan loyihalarni sanab o‘ting

**TANLOV HUJJATLARIDAGI ILOVALARNING BARCHA SAHIFALARI TANLOV ISHTIROKCHISI
RAXBARI TOMONIDAN IMZOLANADI VA TASHKILOT MUHRI BILAN MUHRLANADI**

5-ILOVA

OB'YEKTNI O'RGANILGANLIGI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

1. Ushbu bilan tasdiqlaymanki, men _____ (familiya)

(ob'yekt nomi)

qurilish hududini va unga yondash hududlarni to'liq o'rgandim.

2. Shu bilan birga:

a) tanlov hujjatlarini to'liq va to'kis o'rganib chiqdim

b) ushbu shartnomaning sifatli, to'liq va o'z vaqtida bajarilishi va uning narxiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha milliy va mahalliy sharoitlar va boshqa holatlар va sharoitlarni to'liq o'rganib chiqdik.

Tanlov ishtirokchisining imzosi: _____

Tanlov ishtirokchisi nomi: _____

Tuzilgan sanasi: «____» 2022y.

TANLOV HUJJATLARIDAGI ILOVALARNING BARCHA SAHIFALARI TANLOV ISHTIROKCHISI
RAXBARI TOMONIDAN IMZOLANADI VA TASHKILOT MUHRI BILAN MUHRLANADI

6-ILOVA

ShARTNOMADA KO'ZDA TUTILGAN IShLARNI BAJARISH UChUN IShLATILADIGAN
NUSXA KO'PAYTIRUVChI VA BOSHQA TEXNIKALAR RO'YXATI

Texnika Markasi Miqdori Ishlab chiqarilgan yili
nomi

Tanlov ishtirokchisi imzosi: _____
Tuzilgan sana: « ____ » 2022 y.

TANLOV HUJJATLARIDAGI ILOVALARNING BARCHA SAHIFALARI TANLOV ISHTIROKCHISI
RAXBARI TOMONIDAN IMZOLANADI VA TASHKILOT MUHRI BILAN MUHRLANADI

7-ILOVA

LOYIHA-SMETA XUJJATLARINI IShLAB ChIQISHDA SUBPUDRATCHI SIFATIDA JALB QILINISHI MUMKIN BO'LGAN IXTISOSLASHTIRILGAN TASHKILOTLAR RO'YXATI.

Nº	Subpudratchi tashkilotlar nomi	Bajariladigan ishlar ro'yxati	Izoh
1.		Ko'priklar va tunellar	
2.		Topogeodeziya	
3.		Geologiya	
4.		Yoritish tizimi	
5.		va boshqalar	

TANLOV HUJJATLARIDAGI ILOVALARNING BARCHA SAHIFALARI TANLOV IShTIROKChISI
RAXBARI TOMONIDAN IMZOLANADI VA TASHKILOT MUHRI BILAN MUHRLANADI

8-ILOVA

DA JOYLAshGAN

OB'YEKTNI

ISH IShLAB ChIQISh BO'YIChA

SO'ROV

(buyurtmachi nomi)

Agar bizning taklifimiz qabul qilinadigan bo'lsa, biz loyiha ishini shartnomaga rasmiylashtirilgandan so'ng boshlaymiz va ushbu shartnomaga kiritilgan barcha ishlarni _____ kalendar kun davomida to'liq amalga oshiramiz.

Sana: «____» _____ 20 ____ y.

Imzo